



## SHERMUHAMMAD MUNIS VA OGAIHY ASARLARINING MATNSHUNOSLIK RIVOJIDAGI O'RNI

*Yo`ldasheva Mohinur Akram qizi  
O`zbekiston Milliy universiteti  
o`zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ogahiy va Munis she'riyatining matnshunoslikda tutgan o'rni va ahamiyati izchil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ogahiy, Munis, g'azal, matnshunoslik.

**Аннотация:** В данной статье последовательно освещаются роль и значение поэзии Огахи и Муниса в текстологии.

**Ключевые слова:** Агахи, Мунис, газель, текстология.

**Annotatsion:** In this article, the role and importance of Ogohi and Munis poetry in texture studies is consistently covered.

**Key words:** Ogahiy, Munis, gazal, texture studies.

Feruzshunos olima G. Ismoilovaning yozishicha, Feruz Xiva va uning tevarak-atrofidagi shoir, adabiyotchi, muarrix, musiqashunoslар saroyga yig'ilib, bir adabiy markaz vujudga keltirilgan. Feruz rahbarligida Tabibiyning "Majmatush shuaro", Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohi" asarlari yaratilgan. "Majmatush shuaro"da Feruz saroyida yig'ilgan o'ttizga yaqin shoirlar ijodidan namunalar berilgan. Biz Xorazm adabiy muhiti haqida bu to'plamdan yetarli ma'lumot olishimiz mumkin. XIX asrning o'rtalariga kelib Xivada madaniy hayotida alohida taraqqiyot yuz berdi. Ilgari vayron bo'lib ketgan binolar qaytadan tiklandi. Yangidan sug'orish inshootlari, karvonsaroylar va 60 ga yaqin masjid, madrasa barpo qilindi. Nodir iste'dod egasi (Matniyoz) Komil Xorazmiy oddiy xattotlikdan Muhammad Rahimxon zamonida mirzaboshilik lavozimiga ko'tarildi, 1873 yilda esa devonbegi mansabiga tayinlandi. Qomil Xorazmiy "Rost" maqomiga bastlagan "Murabbai Komil" va "Peshravi Feruz" kuylarining notasi ayni zamonda ham mashhur.

Muhammad Rizo Ogohiyning "Iqboli Feruziy" (yoki "Shohidi iqbol") nomli tarixiy asari Feruz hukmronlik qilgan davr voqealariga bag'ishlangan. Ogahiy, Komil Xorazmiy, Rojiy va boshqa adiblar ko'plab asarlarni fors-tojik tilidan o'zbekchaga tarjiima qilganlar. Atoqli tarjimashunoos N. Komilov ta'kidlagani kabi, bu davrda Xorazm tarjimachilik maktabi paydo bo'lgan edi. Bu vaqtga kelib "Mahfiloro",





“Badoye’ul vaqoye’, “Haft kishvar”, “Vomiq va Uzro”, “Mehru Moh”, “Bahori donish”, “Chor darvish”, “Anvori Suhayliy”, “Shohnoma”, “Guliston”, “Ahloqi Muhsiniy”, “Latoif uttavoif” kabi asarlar fors-tojik tilidan o‘zbekchaga o‘girildi. Muhammad Rahimxon II Xivada toshbosma tashkil etib, kitob chop etishni ham yo‘lga qo‘ygan. Feruz hukmronlik qilgan davr g‘oyatda alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib, xonliklar orasida o‘zaro nizo kuchli edi. Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, Xiva xonligi orasida birlik yo‘q edi. Mana shu qarama-qarshiliklardan chor Rossiyasi ustalik bilan foydalandi. 1866 -yil Rossiya qo‘snilari Buxoro chegaralariga bostirib kirdi. 1868 yilga kelib Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi Rossiyaga tobe’ bo‘ldi. 1873- yil Kaufman rahbarligida jami 13 ming kishidan iborat qo‘shtin, 56 to‘p-zambarak bilan Xivaga qarshi yurish boshladi. 1873- yilning 29 may kuni Xiva egallandi. Ammo Xiva o‘rislar tomonidan ishg‘ol qilinishidan oldin, bu yerda to‘ntarish bo‘lib, Muhammad Rahimxon II o‘rnida uning ukasi Otajon to‘ra xon deb e’lon qilingan edi. Xiva ishg‘ol qiliigandan so‘ng Kaufman Muhammad Rahimxon Feruzni yana taxtga o‘tirg‘izdi. Rossiyaning Xivaga ko‘z olaytirishi Pyotr I davrida boshlangan. Tarixdan ma’lumki, Pyotr I ning Bekovich – Cherkasskiy boshliq ekspeditsiyasi 1714 – 1717-yilda Xiva ostonalarida tor-mor qilib tashlangan, keyinroq V. A. Perovskiy ekspeditsiyasi (1839 – 1840) ham barbod bo‘lgan edi. Muhammad Rahimxon II mana shunday davrda yashab, hukmronlik etib, ijod qilgan. Muarixlarniing ta’kidlashicha, u “Shashmaqom”ga o‘n uchta kuy bastalagan. Hasanmurod qori Muhammadamin o‘g‘li Lafasiyning “Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimai hollari” tazkirasida quyidagi hikoyat keltirilgan: “Doiy – Yusuf Hoji nomi bilan mashhur bo‘lib, hamma vaqt Xiva ulamo va sipohilarini mazammat (mazax) etib, haqorat qilib yurur erdi. Feruz esa Doiyning hurmatini joyig‘a qo‘yar, unga in’om berib turardi. Muhammad Rahimxon Doiyni shul tariqa sipohiy va ulamolarni haqorat qilib, mazammat etishidan voqif ekanligiga qaramay, uni masjidi Kalonda voizlik mansabiga tayinlaydi. Doiy masjididdagi va’zlarida ham vazirlar va ulamolarni tanqid qiladi va ulardan shikoyat etib turadi. Aning har bir gapini xonga yetkazib turardilar. Bir kun xon Islomxo‘jaga: “Bugun nahordan juma masjidiga borgil va voiz nasihatlarini yana eshitib kelgil”, deb farmon berdi. Islomxo‘ja o‘zining yaqinlarini olib, namozga bordi. Yusuf Hoji ularni ko‘rib, mazammat etib aytadi: “Fuqaro – dehqonlarga jabr-zulm etib, alarning manglay teri bilan topilgan aqchalarini olib, bunday aqchalar bilan madrasa, masjid bino qildursa, qandoq savob bo‘lur? Bunday ishlarning jazosini topsalar kerak...”





Islomxo'ja ushbu gaplarni xonga so'zlab beradi. Xon hech narsa demay, Doiyga sarupo in'om etadi."

Quyidagi shoh baytlardai iborat g'azal Feruznidir:

*Nechuk ofat eding, ey sarvqomat,  
Boshimga soldi ishqing yuz qiyomat.  
Qiyomat sho 'rishin jahonga solding,  
Jahondin mun 'adam bo 'ldi farog 'at.  
Farog 'at istagan, chiqsun jahondin,  
Topilmasdur tiriklikda salomat.  
Salomat ahli boshiga falakdin  
Dame tinmay yog 'ar sangi malomat.  
Malomat toshidin ozurdadurlar  
Bu ko 'hna dayrda ahli farosat.  
Farosat xaylining ollida bo 'l qul,  
Boshingga solmayin chini malolat.  
Malomat chekmayin desang jahonda,  
Xudoning bergeniga qil qanoat.  
Qanoat birla sabr o 'lsa sanga ish,  
Har ishda qilmagung hargiz nadomat.  
Nadomat birla umrim o 'tdi, yo Rab,  
Yetur tongla Rasulingdin shafoat.  
Shafoat jomidin sarshor qilg 'il  
Hazin Feruzni shohi risolat.*

Munis ijodiga bir nazar

Munis Xorazmiy (taxallusi; asl ism-sharifi Shermuhammad Amir Avazbiy o'g'li) (1778—Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'i — 1829)—shoir, tarixnavis, tarjimon, xattot va ma'rifatparvar. Dastlabki ma'lumotni tug'ilgan qishlog'ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o'qigan. 1800 yilda otasi vafot etgach, Avaz Muhammad Inoq Munisni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlagan. Munis zamonasining mashhur olim, shoir va san'atkorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini she'riyatga, ilm-fan va ma'rifatga bag'ishlagan. Munis 1804 -yilda birinchi she'rlar devoni — «Devoni Munis»ni yaratgan. 1806- yilda





Eltuzarxon Munisga Xiva xonligi haqida kitob yozishni topshirgan. Munis o'z asarini Sherg'ozixon davrigacha yozib yetkazganda, Eltuzarxon fojiali halok bo'ladi. Munis kitobini davom ettiradi va 1819- yilda Mirxondning «Ravzat us-safo» («Soflik bogi») tarixiy asarini turkiy tilga tarjima qilishni boshlaydi. Munis bu asarning 1-jildini tarjima qilishga ulguradi. U bu ikki asarni ham tugata olmay vafot etadi. Uning «Firdavs ul-iqbol» («Baxtlar bogi») asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi Ogahiy nihoyasiga yetkazadi. Munisning «Firdavs ul-iqbol» asari uzoq davrni qamrab olgan bo'lib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o'rganishda qimmatli manbadir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825 - yilgacha bo'lgan siyosiy tarixi bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va, shuningdek, Xiva xonlarining qo'shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo'lgan munosabatlari haqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Asar muqaddima, 5 bob va xotimadan iborat. 1-bobda Odam Atodan to Nuh payg'ambar avlodigacha bo'lgan qodisalar yoritilgan. 2-bobda Yofasdan Qo'ng'irot sho'basigacha bo'lgan mo'g'ul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan. 3-bobda Kurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir bo'lgan voqealar to'g'risida yozilgan. 4-bobda Eltuzarxonning ota-bobolari xayoti tasvirlangan. 5-bobda Eltuzarxonning tug'ilishidan bu asarning yozilib tamom bo'lishiga qadar bo'lgan voqealar xususida qalam tebratilgan. Xotima esa olimlar, avliyo, amir, bek, shoir, hunarmandlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Munis o'z davridagi sug'orish inshootlari va yer-suv munosabatlariga doir «Arnalar» (arna-anhor, kanal) nomli risola ham yozgan. Bu risola 18-asr oxiri va 19-asr boshlaridagi dehqonchilik bilan bog'liq, ijtimoiy munosabatlarni o'rganishda ahamiyatli. Munisning asosiy adabiy merosi 1815-20 yillarda tuzilgan «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar do'sti») devoni g'azal, muxamma, kasida, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardan iborat bo'lib, 20000 dan ziyod misrani o'z ichiga olgan. U xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilib, 1880 -yilda Xiva toshbosmasida nashr etilgan. Munis Navoiyning «Mezon ul-avzon», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarlarini kitobat qilgan (1794, 1797). Ayniqsa, «Mezon ul-avzon»ni oldingi ayrim xattotlar yo'l qo'ygan xatolarni tuzatib, savodli ko'chirgan. Bu uning aruz ilmining xos bilimdoni ekanligidan ham dalolat beradi. Munisning savod chiqarishni yengillatish va xusnixat san'atini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan «Savodi ta'lim» (1804) she'riy risolasi ham bor. Devonlarining bir necha qo'lyozma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozma asarlari fondida





saqlanadi. Tarixnavis olim Munisning “Firdavs ul-iqbol” nomli asari uzoq davrni qamrab olgan Markaziy Osiyo, ayniqsa Xiva xonligi tarixini o‘rganishda boy qimmatli tarixiy asardir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825 yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixi mufassal bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va shuningdek, Xiva xonlarining qo‘shti turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Asarda Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganish bo‘yicha ham anchagina ma’lumotlar bor. Xiva xonligining Buxoro, Qo‘qon xonliklari, Rusiya bilan olib borgan diplomatik va savdo-sotiq munosabatlari, xonliqdagi sug‘orish, soliq, qurilish ishlari o‘sha davrda yashagan olimlar, shoirlar hayoti, ijodi qalamga olingan. O‘zbek adabiyotida ijodiy mahsuldorlik va asarlarining badiiy barkamolligi bilan haqli ravishda Alisher Navoiydan keyingi shaxs deb tan olingan Muhammad Rizo Ogahiy shaxsi va ijodiga ilk munosabatlarni uning o‘z zamondoshlari asarlarida uchratamiz. XX asr adabiyotshunosligida esa Ogahiy ijodiga ilk marta Olim Sharofiddinov tomonidan tuzilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ga shoirning to‘rtta g‘azali va 1948- yilda nashr qilingan “O‘zbek poeziyasining antologiyasi”ga shoir haqida qisqacha biografik ma’lumot hamda g‘azallari va tuyuqlaridan namunalar kiritilishi bilan e’tibor qaratildi. Ogahiy ijodini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishni shoir tavalludining 150 yilligi munosabati bilan V.Abdullaev, A.Qayumov, V.Zohidov, G’.Karimov, S.Dolimov kabi talantli o‘zbek olimlari boshlab berdilar. Shu munosabat bilan “O‘zbek adabiyoti” (namunalar) to‘plamida va “O‘zbek she’riyati antologiyasi”ning 1961- yilgi nashrida Ogahiyning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar Rahmat Majidiy tomonidan kengroq yoritildi va uning g‘azallari bilan bir qatorda muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a va forsiy she’rlaridan namunalar chop etilib, o‘quvchilar shoir lirik merosi bilan nisbatan chuqurroq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 1959 -yilda Ogahiyning lirik merosi birinchi bor alohida kitob holida nashrdan chiqdi. Ana shu nashr asosida bir yildan keyin Ogahiyning lirik merosidan namunalar rus tiliga ham tarjima qilinib, nashr qilinishi kitobxonlar va ilm ahlining ulug‘ shoir badiiy tafakkuri bilan tanishish imkoniyatlarini oshirdi. Navoiyga tom ma’noda izdosh bo‘lgan shoirning “Ta’viz ul-oshiqin” devonining nashr qilinishini ogahiyshunoslikda jiddiy siljish sifatida baholash mumkin. Ushbu nashr orqali xalqimiz Ogahiyning badiiy barkamol lirik merosidan bahramand bo‘ldi. Ogahiyshunoslik rivojida R.Majidiyning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Rahmat





Majidiy Ogahiy lirikasini ilmiy tahlil qilar ekan, Xorazm adabiy muhiti va undagi adabiy ta'sir masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi. Ogahiyshunoslikning bugungi darajadagi rivojida S.Dolimov olib borgan ilmiy tadqiqotlar va ular tomonidan G'ulom Karimov bilan hamkorlikda Ogahiy asarlarining olti jiddligi nashr qilinishi nafaqat buyuk mutafakkir asarlarini adabiyotshunoslik, shu bilan ijtimoiy fanlarning turli sathlari doirasida o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Albatta, bu jarayonda rus sharqshunoslaring ham o'ziga xos hissalari bor. Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold fikricha, "Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiligi bo'lmasin, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonliklariga doir bizgacha etib kelgan hamma asarlarni o'zidan ortda qoldiradi". Bizningcha, V.V.Bartold Munis va Ogahiy kabi muarrixlar uslubidagi jimmadorlik, badiiy bo'yoq dorlik ko'pligi, aniqrog'i, solnomalarda badiiy unsurlar ustunligi kabi jihatlarni "kamchilik" hisoblagan. Holbuki, bu SHarq muarrixlarining xos uslublaridan sanaladi. Ogahiyshunoslikning keyingi bosqichida F.G'anixo'jaev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni alohida e'tirof etish kerak. Olim 1998- yilda "Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini adabiy manbashunoslilik va matnshunoslilik yo'nalishida himoya qildi va uning ushbu mavzuga doir ko'plab maqolalari "Adabiy meros", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallarida nashr qilingan. Bundan tashqari F.G'anixo'jaev o'zining "Ogahiy Xorazmiyning forsiy she'rlariga bir nazar" maqolasi bilan shoirning forsiy merosiga jahon eronshunoslari e'tiborini tortishga ham hissa qo'shdi. N.Jumaxo'jayev, I.Adizova kabi adabiyotshunoslarning ishlarida XIX asr Xorazm adabiy muhiti vakillari qatorida Ogahiy merosiga ham katta e'tibor qaratilgan. Ogahiyshunoslikning keyingi bosqichida A.Pirimqulov, M.Matyoqubova G.Xolliyeva, T.Matyoqubovalar tomonidan maxsus monografik tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, Ogahiy forsiy merosining bir qismi sharqshunos A.Ahmedov tomonidan o'rganilgan bo'lsa, uning aksar qismi shoir Matnazar Abdulhakim tomonidan badiiy tarjima qilindi. Ogahiy asarlarining G'.Karimov, S.Dolimov, Xurshid va keyinchalik Abdurashid Abdug'afurov rahbarligida nashr qilinishi madaniy hayotimizda katta voqealari bo'ldi. Ogahiy tavalludining 190 yilligi munosabati bilan "Ogahiy abadiyati" maqola va esselar to'plami, "Atoqli shoir, tarixnavis va tarjimon" kitobi va 200 yilligi munosabati





bilan “Ogahiyga armug‘on” maqolalar to‘plamining nashr qilinishi ogahiyshunoslikda muhim voqealardan biri bo‘ldi.

Munis va Ogahiy asarlarining matnshunoslikdagi o’rni.

Ogahiy o‘z ijodiy faoliyati davomida Sa’diy Sheroziyning «Guliston», Xisrov Dehlaviyning «Hasht bihsht», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Kaykovusning «Qobusnomá», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi, o‘z millatini Sharq adabiyotining nodir durdonalari bilan bahramand etadi. Muhammad Rizo Ogahiy o‘z ijodiy faoliyatida insoniy eng yaxshi fazilatlarni — ilm o‘rganib jamiyat farvonligi yo‘lida xizmat qilish insoniylikning eng yaxshi fazilati hisoblanadi. U do‘stlikni, mehmondo‘stlikni, axloqiy go‘zallikni ulug‘laydi. Insonlarni ziyraklikka, to‘g‘ri so‘zli bo‘lishga chorladi. Uning bu fikr, o‘gitlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir. Sa’diy Sheroziyning «Guliston», Xisrov Dehlaviyning «Hasht bihsht», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Kaykovusning «Qobusnomá», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Uning she’rlari o‘zbek va tojik tillarida jilo sochib, insoniylikni, ikkiyuzlamachikni qoralagan. Ayniqsa, Ogahiyning “Sevishganlar tumorı” devoni yuksak insoniy his-tuyg‘ulari haqidagi ifodalangan. Ogahiy Nizomiy Ganjaviy, Xisrov Dehlaviy, Sa’diy Sheroziy, Jomiy, Hiloliy va boshqa shoirlar she’r va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Ogahiy tarjimonlik sohasini piri bo‘lgan. Uning tarjimonlik tartib qoidasi bizning zamonamizdagı badiiy asar tarjimonlariga yaqin. Tarjimonlar, ikki tilda so‘zlashuvchi — o‘zaro bog‘lanishlar va o‘zaro ta’sirlar adabiyotshunoslikning murakkab jarayoni sanaladi. O‘zbek adabiyoti bu davrga kelib tojik, azarbajxon, turkman va boshqa adabiyotlar bilan boyitildi. Firdavsiyning “Shohnoma”si, Bedil she’riyatini oshirish, Fuzuliyning g‘azallariga yozilgan tashhiboslar o‘zbek adabiyotining durdonalari sanaladi. Ogahiy 20 dan ortiq Sharq mumtoz adabiyotshunoslaring tarixiy va badiiy asarlarini (shular qatorida Sa’diyning “Gulistoni”) o‘zbek tarjima qilgan. Uning tarixiy asarlarini tarixchi Bayoniy davom ettirgan. Muhammadrizo Ogahiyning tarjimon ekani haqidagi ilk ma'lumot vengriyalik olim Arminiy Vamberi (1832-1913) tadqiqotida keltirilgan. Arminiy Vamberi Xorazmda she’riyatga bo‘lgan katta qiziqish to‘g‘risida gapira turib, shunday yozadi: “Xivada men ikki aka-uka bilan tanishdim. Biri Munis bo‘lib, u ajoyib she’rlar yozgan; men ularning ayrimlarini keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. U ulkan sabr bilan Mirxondning katta tarixiy asarini o‘g‘li uchun, garchi o‘g‘lining o‘zi





ham fors tilidan xabardor bo'lsa-da, o'zbek-turkiy lahjasiga o'girmoqda. Bu ish 20 yil davom etgan, lekin u buni biron kimsa oldida e'tirof etishdan uyalardi, zero diniy ilmlardan boshqasi bilan shug'ullanish yuzakichilik hisoblanadi". Ushbu iqtibosda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, Ogahiy Mirxonning "Ravzat al-saf" asarini ko'p yillar davomida tarjima qilgan va boshqa tarjimonlarga ham bosh-qosh bo'lgan. Ogahiy fors tilidan o'n sakkizta va usmoniy turkchasidan bitta asar tarjima qilgan. Xivashunos olim Yu. Bregel tarjima asarlarning yillar ketma-ketligini aniqlashga qiyngagan edi. Ammo, ogahiyshunos olim N. Toshev bu xronologiyani shoir o'z devonida ketma-ketlikda bergenligini aniqlagan.<sup>1</sup> Asar nomlarining devondagi ketma-ketligi, ularning qo'lyozmalari va qayerda saqlanishi haqida ma'lumotlarni keltiramiz:

"*Ravzat al-saf*" – Mirxonning Muhammad ibn Xovandshoxning (1433–1498) tarixiy asari. Asar 7 jilddan iborat, Ogahiy asarning ikkinchi jild ikkinchi qismini va uchinchi jildni tarjima qilgan. Umumiyligi 7 ta qo'lyozmasi bor. Ikkinchi jildning 3 ta qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida va bittasi Rossiya milliy kutubxonasida saqlanadi. Uchinchi jild 4 ta nusxada O'zR FA ShI fondlarida saqlangan holda, bizgacha yetib kelgan.

"*Nodirnoma*" - Muhammad Mahdiy Astrabodiy ibn Muhammad Nosirning (1736-1747) *Durrayi nodira* asari nazarda tutilgan. Tarjima Muhammadnazar tomonidan boshlanib, Muhammadaminxon buyrug'i bilan 1266-1850 yilda Ogahiy tomonidan yakunlangan. Qo'lyozmaning 2 ta nusxasi mavjud.

"*Zafarnoma*" - Sharafiddin Ali Yazdiyning shu nomli asari deb taxmin qilinadi. Qo'lyozmalari noma'lum.

"*Zubdat al-hikoyot*" - Muhammad Vorisning (XVII) ahloqiy hiqoyalardan iborat asarining tarjimasi. Tarjima Sayyid Muhammadxon farmoniga binoan amalga oshirilgan. Tarjimaning aniq sanasi berilmagan. Tarjimaning 2 ta qo'lyozmasi mavjud.

"*Miftoh al-tolibin*" - Joni Mahmud Shayx 'Ali ibn Imomiddin al-G'idjduvoniyning 1543-yilda yozilgan asari. Ogahiy kasal bo'lishiga qaramasdan, Sayyid Muhammadxon buyrug'i ila 1859- yilda, asarni 44 kun ichida tarjima qilgan. Asarning yagona nusxasi mavjud.





“Ahloqi Muhsiniy” - Husayn ibn ‘Ali Vo’iz al-Koshifiyning (1504 yilda vafot etgan) etikaga, ahloq qoidalariiga oid asari. Tarjima Sayyid Muhammadxon buyrug‘i ila 1858-1859 yillarda amalga oshirilgan. Qo‘lyozmaning 3 ta nusxasi mavjud.

“Badoye’ al-vaqoye” - Zayniddin Mahmud ibn Abdiljamil Vosifiy (1485-1551) asarining Ogahiy tomonidan O‘rta Osiyo turkiysidagi tarjima qilingan yagona nusxasi. Tarjima Muhammad Rahimxon II farmoni bilan qilingan.

“Nasihat-nomayi Kaykavus”, “Qobus-noma” - Kaykavus binni Iskandar binni Qobus Vushmagirning (1021-1087) ahloqiy-didaktik asari. Tarjima shahzoda Muhammad Rahim II tavsiyasiga binoan amalga oshirilgan. Qo‘lyozmaning 3 ta nusxasi mavjud.

“Salaman va Ibsol” - Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) qalamiga mansub asar. Qo‘lyozmalari noma'lum.

“Guliston” - Sa’diy Sheraziyning (1210-1292) dunyoga mashhur asarlaridan biri. Asar tarjimasi shahzoda Muhammad Rahim II tavsiyasi ila amalga oshirilgan. Asarning 3 ta qo‘lyozmasi saqlangan<sup>[14]</sup>.

“Bahoriston” - Abdurahmon Jomiyning yuqoridagi asari kabi qo‘lyozmalari hali fanga noma'lum.

“Ravzat al-safo ‘yi” - Nosiriyning uchinchi jildi. Asar muallifi Rizaqulixon Hidoyat (vafoti 1871). Xiva xoni Sayyid Muhammadxon buyrug‘i ila asar 1860-61 yillarda tarjima qilingan. Tarjimaning yagona nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanadi.

“Daloyil-al-hayrot” –musulmon aqidshunoslaridan Abdulla Muhammad ibn al-Juzuliy tomonidan arab tilida bitilgan asar. Uning sharhi – Fasih al-Qasriy tomonidan usmonli turk tilida yozilgan. Yagona nusxada saqlangan matn usmonli turk tilidan O‘rta Osiyo turkiysiga Sayyid Muhammadxon topshirig‘iga binoan o‘girilgan. Tarjima sanasi noma'lum.

“Tazkirai Muqimxoniy” - Muhammad Yusuf Munshiyning (XVII) tarixiy asari. 1860-1861 yillarda Qo‘ng‘irot xoni Sayyid Muhammadxon farmoni ila kitobat qilingan. Noyob nusxasi Rossiya milliy kutubxonasida saqlanadi.

“Tabaqoti Akbarshohi” - Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Muqim Hiraviyning 1592-yilda tasnif qilingan tarixiy asari. Tarjima Sayyid Muhammadxonning buyrug‘iga binoan qilingan. Qo‘lyozma yagona nusxada bizgacha yetib kelgan. Asar kolofonida Ogahiy tarjimani Sayyid Muhammadxon hukmronligi





davrida boshlaganini yozadi, lekin tez orada xon vafot etadi va tarjima tugallanmay qoladi. Muhammad Rahimxon II taxtga kelgandan so'ng tarjimani tugatishni buyurdi. Tarjimaning yozilish tarixini 1864- yil deb hisoblash mumkin.

“*Haft paykar*”- Abu Muhammad Ilyos ibn Yusuf Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asarining to‘rtinchı dostoni. Qo‘lyozma yagona nusxada saqlanadi. Nasriy tarjima Muhammad Rahimxon soniyga bag‘ishlangan, uning farmoni ila tarjima qilingan. Tarjima sanasi qayd qilinmagan.

“*Hasht behisht*”- Xusrav Dehlaviyning asari. Qo‘lyozmalari noma'lum.

“*Yusuf va Zulayho*”- Abdurahmon Jomiyning qalamiga mansub nazmiy doston. Tarjimani adib Muhammad Rahimxon soniy buyurtmasiga ko‘ra, nazmdan nazmga o‘girgan. Tarjima sha’bon oyida 1285-1868 yilning noyabr-dekabr oylarida nihoyasiga yetgan. Asarning 7 ta qo‘lyozmasi mavjud.

“*Shoh va gado*”- Badriddin Hiloliyning asarlaridan biri. Nazmiy tarjima Muhammad Rahimxon soniy farmoni ila amalga oshirilgan: Asarning ikkita qo‘lyozmasi saqlangan. Ogahiyning tarjimonlik mahoratiga Najmiddin Komilov ta’rif bergandek, asliyatdagι mukammallik va ravshanlikni, tarjimada sodda, aniq va tushunarli bera olgan. Bayt bar bayt tarjima jarayonida ham, muallifning tilini turkiylashtirgan. Uning tarjima maktabi Xorazm tarjimonlariga ma’shala edi. 15 ta asarining 38 ta qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ulardan 7 tasi yagona nusxada saqlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Matyoqbova. Ogahiy ijodida kichik she’riy janrlar. — T.: 2000
2. Q.Sultonova. Ogahiyning “Gulshani davlat” asari adabiy manba sifatida. -T.:2000  
Matyoqbova. Ogahiy she’riyatida an’anaviy obrazlar talqini. -T.: 2001  
Ma’naviyat yulduzlari, T., 2001
3. R.Majidiy. Munis Xorazmiy. Jurnal „Guliston“ 1995, № 3
4. N.Jumaev. Munis g‘azaliyoti. -T.: 1991

